



**BADIIY MATNDA DINIY LEKSIKANI TARJIMA QILISHDA
UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR: DEN BRAUNNING “DA VINCHI SIRI” VA
“IBTIDO” ROMANLARI MISOLIDA**

Raxmatova Sunbula

Samarqand Zarmed universiteti Tillar kafedrası o‘qituvchisi

e-mail: sunbularaxmatova0975@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Den Braunning "Da Vinchi siri" va "Ibtido" kabi romanlaridagi diniy leksikaning tarjimasi vaqtida uchraydigan muammolari ko‘rib chiqiladi. Asosan, romanlar syujetining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydigan diniy atamalar, ramzlar va tarixiy-madaniy kontekstlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan maxsus qiyinchiliklarga e‘tibor qaratiladi. Turli madaniyatlarda diniy tushunchalarni qabul qilishdagi tafovutlar ayniqsa original matnni o‘zbek kitobxonlari uchun moslashtirish jarayonidagi tarjima strategiyalarining ta’siri ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning muhim qismi sifatida tarjimonlarning Muqaddas Graal, katolik cherkovining aqidalari, masonlik ramzlari va Braunning asarlarida ko‘tarilgan falsafiy-diniy g‘oyalar kabi madaniy jihatdan muhim tushunchalarni ekvivalent tarzda yetkazish masalasiga qanday yondashilganligi o‘rganiladi.

Moslashtirishning asosiy usullari – transfromatsiya, izohli tarjima va lokalizatsiya hamda ularning muallif fikrini kitobxonga yetkazilishidagi ta’siri o‘rganiladi. Ayniqsa, original matnning originalligini saqlash va uni turli madaniy hamda diniy tasavvurlarga ega auditoriya uchun tushunarli qilish o‘rtasidagi muvozanatni topish masalasiga alohida e‘tibor qaratiladi. Bundan tashqari, ushbu maqolada badiiy asarlardagi diniy ramziyat bilan ishlashda tarjima qarorlarining ahamiyati va ularning Den Braun romanlarini madaniyatlararo qabul qilish va talqin qilish jarayonidagi roli ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: diniy ramzli leksika, Muqaddas Graal, katolik cherkovi, masonlik ramzlari, g‘arb madaniyati, tarjima, moslashtirish, falsafiy va diniy konsepsiyalar, lokalizatsiya.

**ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА РЕЛИГИОЗНОЙ ЛЕКСИКИ В
ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ТЕКСТЕ: НА ПРИМЕРЕ РОМАНОВ ДЭНА БРАУНА
«КОД ДА ВИНЧИ» И «ПРОИСХОЖДЕНИЕ»**

Аннотация. В статье рассматриваются проблемы перевода религиозной лексики в романах Дэна Брауна "Код да Винчи" и "Начало". Особое внимание уделяется специфическим трудностям, возникающим при передаче религиозной лексике, символов и историко-культурных контекстов, играющих важную роль в развитии сюжета романов.

Анализируются различия в восприятии религиозных понятий в разных культурах и их влияние на переводческие стратегии, особенно в процессе адаптации оригинального текста для узбекских читателей. Важной частью исследования является изучение того, каким образом переводчики передают такие культурно значимые концепции, как Святой Грааль, убеждение католической церкви, масонские символы и философско-религиозные идеи, затронутые в произведениях Брауна.

Рассматриваются основные методы адаптации – трансформация, пояснительный перевод и локализация, а также их влияние на восприятие авторского замысла читателями. Особое внимание уделяется поиску баланса между сохранением оригинальности текста и его доступностью для аудитории с иными культурными и религиозными представлениями. Кроме того, в статье подчеркивается значимость переводческих решений при работе с религиозной символикой в художественных произведениях, а также их роль в межкультурном восприятии и интерпретации романов Дэна Брауна.

Ключевые слова: религиозно-символическая лексика, Святой Грааль, католическая церковь, масонские символы, западная культура, перевод, адаптация, философские и религиозные концепции, локализация.

THE ISSUE OF TRANSLATING RELIGIOUS LEXIS IN LITERARY TEXT: ON THE EXAMPLE OF DAN BROWN’S NOVELS “THE DA VINCI CODE” AND “ORIGIN”

Annotation. The article discusses the problems of translating religious vocabulary in Dan Brown's novels "The Da Vinci Code" and "Origin". Particular attention is paid to the specific difficulties that arise in the transmission of religious vocabulary, symbols and historical and cultural contexts, which play an important role in the development of the plot of novels. The differences in the perception of religious concepts in different cultures and their influence on translation strategies, especially in the process of adapting the original text for Uzbek readers, are analyzed.

An important part of the study is the study of how translators convey such culturally significant concepts as the Holy Grail, the belief of the Catholic Church, Masonic symbols, and philosophical and religious ideas touched upon in Brown's works. The main methods of adaptation are considered - transformation, explanatory translation, and localization, as well as their influence on the perception of the author's intent by readers. Particular attention is paid to finding a balance between maintaining the originality of the text and its accessibility to audiences with different cultural and religious beliefs. In addition, the article highlights the importance of translation decisions when working with religious symbolism in works of art, as well as their role in the cross-cultural perception and interpretation of Dan Brown's novels.

Key words: religious and symbolic vocabulary, Holy Grail, Catholic Church, Masonic symbols, Western culture, translation, adaptation, philosophical and religious concepts, localization.

Hozirgi zamon adabiyotida, ayniqsa triller va tarixiy fantastika janrlarida ijod qilayotgan adiblar aksariyat holatlarda din, afsona va simvolizm bilan bog'liq mavzularga murojaat qiladi. Shu jumladan amerikalik yozuvchi Den Braunning "Da Vinchi siri" (2003) va "Ibtido" (2013) kabi romanlari bu tendentsiyaning yorqin namunasi hisoblanadi. Bu asarlarda yashirin tarixiy sirlar, diniy timsollar, hayot va e'tiqod mazmuni kabi falsafiy mulohazalar masalalari haqida fikr yuritilgan. Braun bu ikki asarida diniy tushunchalar, tarixiy shaxslar va madaniy an'analarga tayanib, ramziy ma'lumotlardan keng foydalanadi, kitoblarida nafaqat detektiv hikoyalarni, balki ma'naviy va falsafiy masalalarni ham chuqur aks ettiradi.

Den Braun asarlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu - diniy va tarixiy ramzlardan keng foydalanganligi bo'lib, bu ularni tasavvuf, din va tarix bilan qiziquvchi kitobxonlarni ayniqsa o'ziga maftun qiladi. Shu bilan birga, bu turdagi romanlar tarjimonlar uchun diniy va ramziy lug'atni tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq muayyan muammolarning yuzaga kelishiga turtki bo'ladi. Muammo nafaqat iboralarining ma'nosini to'g'ri yetkaza bilishda, balki boshqa tildagi kitobxonlar uchun ularning madaniy va tarixiy ahamiyatini saqlab qolishda hamdir. Muayyan qiyinchilik shundan iboratki, Braun asarlarida qo'llanilgan diniy ramz va tushunchalar G'arb madaniyatining kontekstida o'ziga xos ma'nolarga ega bo'lib, ularning talqini O'zbekiston kabi boshqa mamlakatlarda yashovchi nafaqat madaniyati balki e'tiqodi bilan farq qiluvchi kitobxonlarning idrokida ham farq qilishi tabiiydir.

"Da Vinchi siri" romanini oladigan bo'lsak, undagi markaziy element bu - Muqaddas Graal mavzusi, va uning atrofida qamrab olgan sir-sinoatlar va uning xristian dini tarixidagi ahamiyati hisoblansa, "Ibtido" asarida esa Den Braun Dante Aligyeriga xos ramzlar va matnlariga tayanadi, bu asarda ular haqida ko'plab diniy va falsafiy ishoralar ham mavjud. Ushbu tushunchalarni boshqa tillarga tarjima qilishda tarjimondan nafaqat diniy lug'at haqida ma'lumotga ega bo'lishlikni, balki madaniy kontekstlarni chuqur tushunishini, shuningdek, ushbu ma'nolarning boshqa til va madaniy muhitga yetarli darajada yetkazish qobiliyatini ham talab qiladi.

Diniy iboralar va ramziy leksikalarni tarjima qilish qiyin vazifa bo'lishi mumkin, chunki aksariyat hollarda hatto tillar o'rtasidagi bevosita o'xshashlikni topishning imkoni ham yo'q. Bu moslashtirish, aniqlashtirish, o'zgartirish va ba'zan kontekstni to'liq o'zgartirish kabi turli xil tarjima strategiyalaridan foydalanish zaruratiga olib keladi. Bu holda tarjimonning vazifasi nafaqat ma'noni to'g'ri yetkazishi, balki matnning atmosferasini, uning hissiy kuchini va madaniy ahamiyatini saqlab qolishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, G'arb va Sharq madaniyatlarida diniy tushunchalarni idrok etishdagi farqlarni hisobga olgan holda "Da Vinchi siri" va "Ibtido" romanlaridagi diniy va ramziy lug'atni

tarjima qilishda, jumladan asarlarning o‘zbekcha talqinida tarjimonlar Muqaddas Graal, Birodarlik, Dante ramzlari va boshqalar kabi diniy ramzlarni yetkazish muammolarini qanday hal qilinishini, shuningdek, bu ramzlar turli til va madaniy kontekstlarda qanday qabul qilinishini ham ko‘rib chiqish maqsadli hisoblanadi.

Bu maqolada Den Braun asarlaridagi diniy lekska, simvolik tushunchalarni tarjima qilish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish, shuningdek, matnda chuqur ma‘no va ramziy qadriyatlarni yetkazishga yordam beradigan tarjima usullari va strategiyalarini ishlab chiqish lozim. Muvaffaqiyatli tarjima asl nusxadagi madaniy va tarixiy urg‘ularni saqlab qolishi, matnni boshqa tillarda so‘zlashadigan kitobxonlarga ochiq va tushunarli qilish uchun qanday yordam berishini ham ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, diniy va ramziy iboralar Den Braun romanlari matnining ajralmas qismi bo‘lishi bilan birga, yozuvchi “Da Vinchi siri” va “Ibtido” romanlarida matnning muhim elementi sifatida diniy va tarixiy simvolizmdan juda ko‘p marotaba foydalangan, u yuqorida qayd qilinganlardan nafaqat intriga yaratishda, balki falsafiy va teologik savollarni shakllantirishda ham mohirona qo‘llagan. Bu kabi asarlar detektiv, falsafiy roman va tarixiy trillarning sintezi hisoblanib, muallifga ko‘plab murakkab tushunchalardan foydalanish imkonini beradi, ularning aksariyati bevosita diniy simvolizm bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, “Da Vinchi siri” asarida asosiy element Muqaddas Graal tushunchasi bo‘lganligi uchun Braun uni moddiy ob‘ekt sifatida emas, balki faqat bir nechta tanlanganlarga ma‘lum bo‘lgan yashirin haqiqat sifatida izohlaydi. Yozuvchi Muqaddas Graalni an‘anaviy kosa sifatida emas, balki ko‘chma ma‘nodagi so‘z ya‘ni metafora sifatida - Marya Magdalena bilan bog‘liq sir sifatida taqdim qiladi va u qonning chizig‘i bo‘lib, u bilan bog‘liq bo‘lgan sir xristian cherkovi tomonidan ehtiyotkorlik bilan yashirilgan. Bu haqiqat chuqur ramziy ma‘noga ega bo‘lib, asarni shunchaki detektivligini emas, balki e‘tiqod, haqiqat va tarixiy xotira g‘oyalarining o‘ziga xos falsafiy o‘yiniga aylantira olishi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Braun yangi afsonani yaratadi, natijada unda turli diniy artefaktlar va belgilar an‘anaviy diniy ta‘limotlar tomonidan berilganidan boshqacha ma‘noga ega bo‘ladi. Masalan, u Marya Magdalenani nasroniylik tarixidagi roli haqidagi an‘anaviy idrokni shubha ostiga qo‘yadi va uni Muqaddas Graalning "haqiqiy" ma‘nosini ochib beradigan markaziy shaxsga aylantiradi, ya‘ni

*Sophie scanned the work eagerly. "Does this fresco tell us what the Grail really is?" "Not what it is," Teabing whispered. "But rather who it is. The Holy Grail is not a thing. It is, in fact... a person".*¹

Софи впиалась взглядом в иллюстрацию.

– *Так, получается, эта фреска говорит нам, что на самом деле представляет собой чаша Грааля?*

– *Не что, – прошептал в ответ Тибинг. – Скорее кто. Дело в том, что Грааль никакой не предмет. На самом деле это... лицо вполне одушевленное.*⁴

Sofi sur‘atga sinchkovlik bilan nazar sola boshlai,

- Bundan kelib chiqadiki, bu sur‘at Graal kosasi aslida nimadan iborat ekanligini bildiradimi?

Софи суратга синчковлик билан назар сола бошлади.

- Nima emas, - shivirladi Tibing, - kimdan. Gap shundaki, Graal hech qanaqangi buyum emas, u – odam.¹

Bundan tashqari, G‘arb madaniyatidagi "Muqaddas Graal" ko‘pincha yo‘qolgan xazina, Injil merosi va davra suhbatlari ritmlari haqidagi afsonalarni qidirish bilan bog‘liqni ham anglatadi. Biroq o‘zbek kitobxonlari uchun bunday tushuncha unchalik aniq bo‘lmayligi mumkin. Barcha ma‘nolarni yetkazish uchun tarjimon masalaning nafaqat leksik tomonini, balki ushbu belgi bilan bog‘liq madaniy merosni ham hisobga olishi kerak. O‘zbek tilida bu nafaqat aniq tarjimani, balki kitobxon muallif tomonidan qo‘yilgan barcha ma‘nolarni tushunishi uchun mumkin bo‘lgan tushuntirishlarni ham talab qiladi.

Diniy ramzli leksikaning tarjimasida Braunning romanida "gunoh", "tavba", "qutqarish", "muqaddas bitik" kabi boshqa ko‘plab diniy atamalar va tushunchalarning roli katta hisoblanadi. Ushbu atamalar diniy va madaniy an‘analarga qarab turli xil talqinlarga ega bo‘lishi mumkin, bu tarjimada muhim qiyinchilik tug‘diradi. "Da Vinchi siri" da diniy ramzlar nafaqat syujetni qurish uchun, balki haqiqiy imon va yolg‘on deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan narsalar haqida falsafiy mulohazalar yaratish uchun ham xizmat qiladi. Bu yerda tarixiy haqiqat, katolik cherkovi va xristian mifologiyasida ayolning roli bilan bog‘liq savollar shubhasiz paydo bo‘ladi.

Shu bilan birga, "qutqarish" yoki "tavba qilish" atamalarini yetkazish ham qiyin bo‘lishi mumkin, chunki bu tushunchalar turli diniy kontekstlarda turli xil ma‘nolarga ega ekanligini unutmaslik darkor. Xristian an‘analarida poklanish Iso Masihning azob-uqubatlari va o‘limi orqali gunohlarni kechirish jarayonini anglatadi. Biroq, boshqa dinlar va falsafiy maktablarda qutqarish tushunchasi boshqacha talqin qilinishi mumkin. O‘zbek tilida ham ushbu leksikalarni tushunishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud, bu jihatdan tarjimondan ma‘noni yetkazishda ma‘lum bir ehtiyotkorlikni talab qiladi. Masalan, Islom an‘analarida gunohlarni kechirish ko‘pincha tavba qilish harakati va inson xatti-harakatlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu nasroniylarning idrokidan farqli o‘laroq o‘ziga xos xususiyatlarga egadir.

Diniy ramzlar va tarixiy voqealarga ishoralar, masalan, fitna nazariyalariga yoki taniqli diniy artefaktlarga murojaat qilish, tarjimondan nafaqat leksik aniqlikni, balki maqsadli auditoriyaning madaniy xususiyatlarini hisobga olish qobiliyatini ham talab qiladi. Masalan, Braunning romanlarida doimiy ravishda katolik cherkovi, Papa va diniy marosimlarga havolalar mavjud bo‘lib, ular xristian tarixi bilan tanish bo‘lmagan kitobxonlar tomonidan noto‘g‘ri tushunilishi mumkin. G‘arbda yuqorida qayd qilingan tushunchalar nasroniylik an‘analari nuqtai nazaridan qabul qilingan bo‘lsa-da, o‘zbek tilida so‘zlashuvchi kitobxonlarning ushbu ramzlarning mazmuni va ma‘nosini tushunishlari uchun qo‘shimcha ravishda mazmunining yoritilishi maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tushunchalarni idrok etishdagi noaniqlik tarjimondan ma‘lum bir yondashuvni talab qiladi. Masalan, "Da Vinchi siri" romanida "Papa" yoki "birodarlik" tushunchasi

tushunmovchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun izoh yoki qo‘shimcha ma’nolarni talab qilishi mumkin. Ushbu atamalarining ma’nosini yetkazish bilan bir qatorda, asarga xos bo‘lgan sirli muhitni saqlab qolish ham muhimdir. Buning uchun tarjimon moslashish, perifraza yoki hatto madaniy sharhlarni kiritish kabi strategiyalardan foydalanishi mumkin, bu esa kitobxonga ushbu belgilarning ma’nosini yaxshiroq anglashiga imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari, G‘arb va Sharqning diniy an’analarga xos bo‘lgan iboralar, diniy leksika va ramzlarni tarjima qilish "Ibtido" romanida do‘zax va inson gunohlari tasviri bilan bog‘liq bo‘lgan metaforalarga boydir. Braun tomonidan inson harakatlarining oqibatlarini tasvirlash uchun ishlatilgan metaforalar G‘arb ilohiyoti va katolik an’analari bilan bevosita chambarchas bog‘liq. Masalan, gunohkorlar uchun jazolar sodir bo‘ladigan joy sifatida do‘zax tushunchasi nasroniylik e’tiqodining muhim elementi hisoblanadi. Biroq, o‘zbek tilida so‘zlashadigan kitobxonlar uchun bu kabi metafora ma’lum bir moslashuvni talab qilishi mumkin, shu bilan birga bu madaniyatlarda do‘zax haqidagi tasavvurlar bir-biridan farq qiladi. Belgilarni moslashtirish va o‘zgartirish diniy va ramziy lug‘at tarjimasining muhim jihati hisoblanadi. Masalan, agar "Da Vinchi siri "Muqaddas Graal " ni eslatib o‘tsa, boshqa tillardagi kontekstda tarjimon bu nafaqat afsonaviy ob’ekt, balki xristian merosi kontekstida muhokama qilinadigan ramziy haqiqat ekanligini tushuntirishi kerak bo‘lishi mumkin. O‘zbek kontekstida esa diniy ramzlarni idrok etishning mahalliy xususiyatlarini hisobga olish va tarjimani kitobxonga tushunarli bo‘lishi uchun moslashtirish ham muhimdir hisblanadi.

Shunday qilib, Den Braunning "Da Vinchi siri" va "Ibtido" kabi badiiy asarlaridagi diniy ramzli leksikalarning tarjimasi tarjimondan nafaqat aniqlikni, balki madaniy kontekstlarni, falsafiy va diniy tushunchalarni chuqur tushunishni talab qiladigan ko‘p bo‘g‘inli va ko‘p darajali jarayon hisoblanadi. Braunning asarlarida bu ramzlar nafaqat hikoya rolini o‘ynaydi, balki tarix, din va inson ongi bilan bog‘liq falsafiy va teologik fikrlarning butun qatlamini yaratib beradi.

Muqaddas Graal, gunoh, tavba kabi diniy tushunchalarni, shuningdek "Ibtido"da do‘zaxni tasvirlash kabi murakkab metaforalarni tarjima qilish jarayoni ushbu ramzlar va tushunchalarni turli madaniyatlar va tillarda idrok etishdagi farqlarni hisobga olish zarurati bilan bog‘liqdir. G‘arb diniy an’alarining ajralmas qismi bo‘lgan ushbu ramzlar tarjimondan asarning o‘ziga xos atmosferasi va falsafiy chuqurligini saqlab qolish uchun kontekstga alohida e’tibor berishni va moslashishga ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi.

Asosiy jihat tarjimonning nafaqat diniy ramzli leksikalarning bevosita ma’nosini, balki turli mamlakatlar va til muhitida turlicha qabul qilinishi mumkin bo‘lgan madaniy va tarixiy ahamiyatini yetkazish qobiliyatini ham anglatadi. Asl matn tegishli bo‘lgan diniy va madaniy an’alarni tushunish va maqsadli auditoriyani bilish kitobxonlar tomonidan to‘laqonli asar sifatida qabul qilinadigan, uning barcha subtekstlari va chuqurligini saqlaydigan muvaffaqiyatli tarjima uchun asos hisoblanadi.

Shunday qilib, diniy ramzli leksikani tarjima qilish tarjimondan nafaqat og‘zaki shakllarni yetkazish mahoratini, balki matnga kiritilgan murakkab madaniy va falsafiy g‘oyalarni talqin

qilish qobiliyatini ham talab qiladi. Tarjimon ma'no uzatishning aniqligi va ramziy kontekstni saqlash o'rtasidagi muvozanatni saqlashi juda muhim, shundagina kitobxon asl auditoriya boshdan kechirayotgan muhitni his qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “Do Vinchi siri” Den Braun. Raximov M., Sobirov B. rus. tarj. T.:2007
2. “Ibtido” Den Braun. O G'ulomova tar. Asaxiy T.:2021
3. “Происхождение”/ Ден Браун. Перев с англ. И.Болычев. AST Publishers/Москва: 2017.
4. “Код До Винчи”/ Ден Браун. Изд.Акт/Москва: 2004 Гл.55
5. Васильева, И. М. *Символизм в литературе: Теория и практика перевода*. Москва: Либроком, 2010.
6. Brown, Dan. *The Da Vinci Code*. Doubleday, 2003.
7. Brown, Dan. *Ibtido*. Doubleday, 2013.
8. Raxmatova, S. A. (2022). Shon O'Keysi asarlaridagi g'oya va badiiylik. *Science and Education*, 3(11), 1367-1371.
9. Raxmatova S. Jahon bestseller romanlari muallifi den braunning ijod yo'li. Zamonaviy til fanlari: an'analar va istiqbolliyo'nalishlar respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari 28.11.2024., Samarqand. 298 b.